O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/3



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga
ilmiy-nazariy jurnali

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N. G‘afforov
U.O. Azimova
M.S. Ayxodjaeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

**“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/3

A.A. Utepov – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi karatechilarning kumite (erkin jang) dasturi bo‘yicha qo‘l zarbalari texnik harakatlarini rivojlantirish uslubiyati. 69

С.А. Петрянин – К развитию процесса тактической подготовки дзюдоистов юниоров на этапе совершенствования спортивного мастерства. 74

A.P. Boyqobilov – 200 m masofa yuguruvchi malakali yengil atletika talabalarining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va ularni shakllantirish. 77

**ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА**

D.O. Maxamatova – Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘spirin yoshidagi sportchilarda emotsional intellektning namoyon bo‘lishi. 81

D.B. Baxtiyorov – Yuqori malakali amputant futbolchilarda musobaqa oldi mashg‘ulotlarini rejalashtirish. 85

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

A.N.Shopulatov – Yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga nisbatan qadriyatli yondashuvni shakllantirish yo‘llari. 88

N.M. Muxitdinova – Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakat faoliyatlarini o‘rgatishda vizual metodlardan foydalanishning nazariy tahlili. 92

N.F. Saloxiddinov – Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini shakllanishi. 95

O.M. Jiyanov – Sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda ilmiy yondoshuvlarning ahamiyati hamda samaradorligi. 99

N.A. Chorshamiyev – Umumta’lim maktablarida sport to‘garaklari orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash hamda sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya mazmunini optimallashtirish. 104

U.I. Sultonov – O‘quv-mashg‘ulot guruhidagi uzoq masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi mezosikllarini rejalashtirish uslubiyati. 107

D.S. Nurullayeva – Sportchilar va murabbiylar faoliyatini rivojlantirishda qonunchilik yangiliklarining nazariy-huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi. 110

F.Ch. Ziyayev – Bosqon uloqtiruvchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida murabbiy va sportchi o‘rtasidagi pedagogik muloqotning o‘rni. 113

J.A. Alimov – Malakali gandbolchi-qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati. 116

M.Sh. Ismailova., J.N. Asatillaev., Sh.T. Xaydarov – Malakali sportchilarda yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining jismoniy yuklamadan keyingi tiklanish dinamikasini o‘rganish. 122

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yuqori malakali amputant futbolchilarning tayyorgarligida o‘yin uslubiga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish, ya’ni harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari elementlarini mashg‘ulot jarayoniga integratsiya qilish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday yondashuv sportchilarning motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning texnik-taktik harakatlarini tabiiy sharoitda shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichini rejalashtirishda ertalabki mashg‘ulotlarda tezkorlik, kuch va texnik tayyorgarlikka yo‘naltirilgan yuklamalarni, kechki mashg‘ulotlarda esa umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantiruvchi vositalarni variativ qo‘llash maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

Mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish, sportchilarning funksional holatini muntazam nazorat qilish hamda tiklanish jarayonlariga yetarli e’tibor qaratish ularning ish qobiliyatini oshirish va sport formasini barqaror saqlab turishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, amputant futbolchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish va boshqarish ularning sport mahoratini oshirish, shuningdek, milliy va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Mirjamolov, M. Kh. (2022). Oliy ta’limda paralimpiya bo‘yicha sportchilar tayyorlash tizimini pedagogik nazorat qilishning ilmiy-metodik asoslari [Scientific and methodological foundations of pedagogical control in the system of training Paralympic athletes in higher education] (PhD dissertation). Chirchiq.

2. Palibaeva, Z. M. (2022). Paralimpiya sportiga yangi texnologiyalar asosida adaptiv-sog‘lomlashtiruvchi metodlarni o‘zlashtirish va joriy qilish [Implementation of adaptive health-improving methods in Paralympic sport based on new technologies] (PhD dissertation). Chirchiq.

3. Sobirova, L. B. (2023). Zaif ko‘ruvchi va ko‘zi ojiz shaxslarni golbol sport turiga tayyorlashning metodologik asoslari [Methodological foundations of training visually impaired and blind individuals in goalball] (DSc dissertation). Chirchiq.



Pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
A.N. SHOPULATOV[1]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

https://orcid.org/0000-0001-7793-3181

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i3.a024

YOSHLARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA NISBATAN QADRIYATLI YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

В данной статье научно-теоретически обосновано значение физического воспитания и спорта в воспитании молодежи, проанализированы социально-нравственные проблемы в процессе повышения физического воспитания до уровня культуры, а также разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: *физическая культура, физическое воспитание, спорт, здоровье, воспитание молодежи, ценность, нравственное воспитание, нравственные ценности спорта.*

Abstract

Mazkur maqolada yoshlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati ilmiy-nazariy asoslangan bo‘lib, ularning jismoniy tarbiyasini madaniyat darajasiga olib chiqishdagi ijtimoiy-axloqiy muammolar tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, salomatlik, yoshlar tarbiyasi, qadriyat, axloqiy tarbiya, sportning axloqiy qadriyatlari.*

This article provides a scientific and theoretical justification of the importance of physical education and sports in educating young people. It analyzes the socio-moral issues of raising their physical education to the level of culture and develops proposals and recommendations.

Keywords: *physical culture, physical education, sports, health, youth education, values, moral education, moral values of sports.*

Dunyoda jismoniy tarbiya va sport inson salomatligining asosi sifatida shakllanish bilan birga inson kamolotida asosiy vositalardan biri bo‘lib kolmoqda. Insonning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam, ya’ni davomli shug‘ullanib borishi uning jismoniy madaniyatini belgilab beradi. Mazkur jarayonda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish jamiyatda ma’lum bir ustunlikni qo‘lga kiritish maqsadida amalga oshirilishi salbiy oqibatlarni olib keladi. Xususan, o‘zini boshqalardan ustun qo‘yish, boshqalarni kuch bilan o‘z manfaatlariga bo‘ysundirish, belgilangan ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga amal qilmaslik, manmanlik kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Jamiyatagi jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishning bunday salbiy oqibatlarini bartaraf etishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishning madaniyat darajasiga ko‘tarish va shu yo‘nalishdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish hamda jismoniy tarbiya va sportga nisbatan barqaror qadriyatli munosabatlarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya va sportning jismoniy madaniyat darajasiga ko‘tarish uchun yoshlar tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportdan faol foydalanish, yoshlar tomonidan jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga odatlanish hamda yoshlarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha bilim va tajribalarini oshirib borish samarali chora-tadbirlar hisoblanadi.

Avvalo, madaniyat va jismoniy madaniyatnig o‘za-

ro bog‘liqligini tushunib olish kerak bo‘ladi. Chinki, jismoniy madaniyat madaniyatning bir qismi bo‘lib, insonni kamolotga yetaklovchi asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada jismoniy madaniyat yo‘nalishidagi ataqli olimlardan biri L.P.Matveev: “Birinchi jarayon bu holda ancha oddiy tuyuladi: axir «jismoniy madaniyat» atamasi o‘ziyoq gap butun madaniyat hodisalaridan biri haqida ketayotganini bildiradi va ushbu hodisaning madaniyatning keng doiradagi turlariga mansubligi mutaxassislarning hech biri tomonidan jiddiy shubha ostiga olinmaydi” [7; 16-b.], deb ta’kidlaydi. Bundan madaniyat va jismoniy madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini jismoniy madaniyat madaniyatning rivojiga xizmat qilishini, o‘z navbatida madaniyatninig rivojlanishi jamiyatda insonlarning o‘zaro munosabatlarining adolat, haqiqat, o‘zaro hurmat, tinchlik, do‘stlik kabi qadriyatlarga asoslanishini ifoda etadi. Chunki “Jismoniy madaniyat predmetli qadriyatlar majmui sifatida jamiyatda uning faoliyat yuritishi va rivojlanishi jarayonida yaratiladigan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmui bilan ifodalanadi” [7; 20-b.].

Jismoniy tarbiya va sport jismoniy madaniyatni shakllanishiga hamda ular madniyatning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy madaniyat Insonning jismoniy imkoniyatlari doirasida inson, jamiyat va tabiatga nisbatan shakllangan oqilona munosabatlarini ifoda etsa, jismoniy tarbiya Insonni jismoniy madaniyatli qilib tarbiyatlash vositasi, salomatlikka qadriyatli yondashuvi hamda ilmiy-uslubiy salohiyati belgilab beradi hamda sport inson axloqini shakllantiruvchi tarbiyaviy kuch sifatida inson jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirib, ichki ma’naviy olamini boyitib boradi (1-rasmdagi sxemaga qarang).

Jismoniy tarbiya va sport madaniyatning bir qismi sifatida inosning tarixan shaklanish jarayonida aossiy vositalardan biri bo‘lib, insonni tabiat va jamiyat talablari asosida yashashiga moslashtiradi. “Jismoniy kamolot mezonlari, tabiiyki, aniq tarixiy xususiyatga ega: ular o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi, balki ijtimoiy taraqqiyot bosqichlariga va jamiyat hayotining real shakllanayotgan tub sharoitlariga qarab o‘zgaradi. Haqiqatan ham gumanistik jamiyatda, istiqbolda barpo etilishiga umid qilamizki, jismoniy kamolot odatda har bir kishiga xos bo‘lishi mumkin, agar u amalda jismoniy madaniyat boyliklaridan doimo va mahorat bilan foydalansa” [7; 21-22-b.]. Shu bilan birga ularga moslashishga yordam beradi.

Bu jarayonda insoning sport bilan shug‘ullanish jarayonida erishgan yutuqlari uning jismoniy imkoniyatlarini oshirib, o‘ziga bo‘lgan ishonchni, ko‘zlagan rejasini amalga oshirishdagi shashtini, boshqa insoninglarning manfaatlarini hurmat qilishga o‘rgatadi. Sport bilan shug‘ullangan isnolarning irodaviy-axloqiy sifatlari mustahkam bo‘ladi. Bu esa inson kamolotini muhim o‘rin tutadi. “Hozirgi zamon maxsus terminologiyasida uning tor va keng ta’riflari farqlanadi. Tor (asliy) ma’noda sport bevosita musobaqaviy faoliyatni anglatadi. Keng ma’noda (biroq haddan tashqari emas) «sport» tushunchasi bevosita musobaqaviy faoliyatni, unda yutuqlarga erishish uchun tayyorgarlik jarayonini, shuningdek, mazkur faoliyat asosida shakllanadigan o‘ziga xos insonlararo munosabatlarni qamrab oladi” [7; 25-26-b.]. “Shu tariqa, jismoniy madaniyatning umumiy nazariyasi (uning umumiy asoslari) — jismoniy madaniyatning mohiyati, uning shakllanishi, faoliyat yuritishi, maqsadli ravishda foydalanilishi va keyingi taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi ilmiy bilimlarning integrativ tizimidir. Bu esa, avvalo, tarbiya omillari, shaxsning ijtimoiy shakllanishi va insonning hayotiy kuchlarini optimal rivojlantirish tizimida namoyon bo‘ladi” [7; 34-b.].

Jismoniy tarbiya va sportning inson madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini o‘rganish hamda bu yo‘lda ta’lim berayotgan mutaxassislarning bilim va tajribasini oshirib borish yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga qadriyatli yondashuvchini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.



1-rasm. Jismoniy tarbiya va sportning inson ijtimoiy axloqiy tarbiyasiga ta’siri sxemasi.

Ayniqsa, bugungi kunda taraqqiyot natijalari ta’sirini o‘rganishda ham jismoniy tarbiya va sportning o‘rnini to‘g‘ri baholab borish kerak. Chunki, bugun asosiy e’tibor yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga, iqtisodiy taraqqiyotga erishishga qaratilmoqda. Insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning begonalashuviga, uzoqlashishga sabab bo‘luvchi jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarning salmog‘i esa kamayib bormoqda. Natijada jamiyat

barqarorligini ta’minlash yo‘lida barcha vositalardan foydalanish, ayniqsa yoshlarning ma’naviy va jismoniy salomatligini ta’minlash bo‘yicha tadqiqotlarni tashkil qilish zaruriyatga aylanmoqda. Bu esa mutaxassislarni tayyorlashda va ularning kasbiy salohiyatini oshirishda bir tomonlama yondashuv vujudga kelganligini ko‘rsatadi. Jumladan, “Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda”. Mazkur harakatlarda barkamol avlodni tarbiyalash asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Barkamol avlodni sog‘lom, bilimli, kuchli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish jarayonlarini ham tadqiq etish, o‘rganish muhim hisoblanadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy institut sifatida rivojlanib borishi, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish zarur ekanligini ko‘rsatadi.

“Jismoniy madaniyatni jamiyat a’zosi bo‘lgan insonning jismoniy qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida qarash – yuzaki qarash bo‘lib qoladi. Jismoniy tarbiyaning ixtisoslashgan vazifasi – nafaqat shaxsning shakllanishiga ta’sir o‘tkazish, balki uning bir jihatlaridan biri bo‘lgan jismoniy madaniyatiga, yoshlarning salbiy xulq-atvoridan ogohlantirish ham kiradi[11; 16-.]. Shuning uchun ham, “jismoniy rivojlanish”, “jismoniy tarbiya” va “jismoniy madaniy tarbiya” tushunchalarini o‘zaro aralashtirish kerak emas. Birinchi tushuncha ob’ektiv jarayon bo‘lib, odam organizmida ro‘y beradi. Ikkinchisi – bu jarayonga odamning faol ta’siri bo‘lsa, uchinchisi esa insonlarning jismoniy madaniyat qadriyatlariga nisbatan munosabatlarini shakllantirishni anglatadi. Shunday qilib, jismoniy madaniy tarbiya va uning tarkibiy qismlari – bu bosqichma bosqich pedagogik jarayondir. U maqsadli tarzda insonning doimiy o‘zgarib turuvchi jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga, kamolotiga moslashib boradi. Uning asosiy vazifasi shundan iboratki, odamning tabiat tomonidan in’om etilgan jismoniy tana imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlash va rivojlantirishdan iborat.

Jismoniy madaniyatning zamonaviy nazariyasida jismoniy madaniyat hodisasini talqin qilishda falsafiy-madaniy yondashuvdan foydalanish amaliyoti va uning har bir shaxs tomonidan shakllantirish mexanizmlari juda aniq rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ham, insonning “jismoniy” tarbiyasi dolzarb emas, “jismoniy madaniy” tarbiyasi kun tartibiga qo‘yiladi. Agar “jismoniy” so‘zida odatda urg‘u harakat tayanch tizimi tushunilsa, “jismoniy madaniy” atamasi esa madaniyat orqali tarbiyalashni nazarda tutadi. Bu esa jismoniy madaniyatga xos qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali kechadi. Shunday qilib, biologik va sotsial tushunchalarining o‘zaro munosabati bu falsafiy omillarning uyg‘unligi va bir biriga bog‘liqligi g‘oyasini ifoda etadi. Inson jismoniy madaniyat qadriyatlarini o‘zlashtirishi orqali jismoniy jihatdan mukammal bo‘lgan shaxs bo‘lib shakllanib boradi. Bu esa mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda qadriyatli yondoshuvning ahamiyati ko‘rsatib beradi hamda mazkur yo‘nalishda tadqiqotlarni tizimli tashkil qilish o‘z samarasini beradi.

Jahon va mamlakatimiz olimlarining fikricha jismoniy tarbiya va sportdan oqilona foydalanish, jismoniy tarbiya va sportdan foydalanishni odatga chiqarish orqali qadriyatli yondashuvni (barcha munosabatlar qadriyatlar asosida tashkil qilishini) vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada jismoniy tarbiya va sporga qadriyatli munosabatni shakllanishga yordam beruvchi har bir omilni rivojlantirib borish kerak bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida qadriyatli munosabatlarning shakllanishi undan muntazam foydalanishga olib keladi.

Bu jarayonda asosiy qadriyatlarimiz bo‘lgan Islom dinining ko‘rsatmlaridan foydalanish, yoshlar orasida targ‘ib qilish o‘z samarasini beradi. “Tarixdan ma’lumki, Islom ta’limotlariga to‘g‘ri amal qilingan davrlarda musulmonlar orasida boshqa sohalar qatori sport sohasida ham ko‘plab yutuqlar qo‘lga kiritilgan” [12; 10-b.]. Hatto, bizga ma’lumki “Hazrat Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ishyoqmaslik, dangasalik va battollik kabi jismoniy va ruhiy harakatlarni susaytiruvchi illatlardan doim panoh tilar va biz ummatlarni ham mazkur illatlardan panoh so‘rashga chaqirar edilar”[12; 13-b.].

Bu borada Islomning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga bo‘lgan chaqriqlarini, uning foydali tomonilarini ochib berish yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishning yanada ommalashishiga hizmat qilishi shubhasizdir. Xususan, “Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Abdulloh, Ubaydulloh va Abbos avlodlaridan ko‘plab o‘smirlarni safga terib, kim o‘zib ketsa shuncha, va shuncha der edilar. Roviy aytdi: so‘ng ular ul zot tomon musobaqa qilar edilar”[12; 25-b.] kabi hadislar orqali sporning inson ruhiy va jismoniy kamolatidagi ahamiyatini yor-

itib borish yoshlarning ongu va qalbiga chuqur kirib borishida ahamiyatli hisoblanadi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish jarayonlarini ilmiy qonuniyatlar doirasida tatqiq etib borish oldimizda turgan muhim vazafalardan biri, deb hisoblaymiz. “Shuning uchun ham salomatlikka umumiy tushunchada sifatida, inson bilim va ko‘nikmalaridan unumli foydalanish, asrash va sog‘lomlashtirish, unga bo‘lgan munosabatni umumbashariy qadriyat sifatida yuqori darajada ko‘tarish madaniyati sifatida yondashish mumkin” [13; 27-b.].

Sog‘lom turmush tarzi ko‘p jihatdan talabaning qadriyat yo‘nalishlariga, dunyoqarashiga, ijtimoiy va axloqiy tajribasiga bog‘liq. Qadriyatli munosabatlar shaxsning o‘z faoliyatida boshqaradigan va boshqariladigan ijtimoiy qadriyatlarni erkin tanlashni nazarda tutadi. Bu esa tadqiqot natijalariga ko‘ra yoshlarning jismoniy tarbiya va sport haqidagi bilimlarining ortib borishi hamda ularning bilim darajasi jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish darajasini oshib borishini asoslaydi. Bunday holatlarda Islom dinining ko‘rsatmalaridan foydalanish, amalga oshirayotgan harakatlarmizni yaxshilikka, ezgulikka va savob ishlarga qaratilganligini bilish bunday ishlarni muntazam amalga oshirish ishtiyoqini beradi. Masalan, “Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadiki: Nabiy sollallohu alayhi vasallam aytdilar: Kuchli mo‘min zaif mo‘mindan ko‘ra Allohga suyukli va yaxshiroqdir. Va hammasida yaxshilik bor”[12; 27-b.] kabi hadislar orqali yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularning kuchli bo‘lishga bo‘lgan intilishlarini hamda bunda jismoniy tarbiya va sportdan samarali foydalanishga bo‘lgan harakatlarining o‘sishiga xizmat qilib, ta’sirining ortib borishiga olib keladi.

Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish darajasiga ko‘tarilishida yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli tashkil qilishga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Bu jarayonda Islom qadriyatlaridan foydalanish o‘z samarasini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda yoshlarni jismoniy madaniyatli qilib tarbiyalashda quyidagi omillarga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi:

Birinchidan, jamiyat va davlat uchun sport ta’limidagi muammolarni bartaraf etish, sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish, sportning taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatishi asoslab berish;

Ikkinchidan, sport ta’limini rivojlantirish nafaqat sog‘lom avlodni tarbiyalash, balki jamiyatning ma’naviy, axloqiy va iqtisodiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Bu sohadagi e’tibor va investitsiyalar jamiyat farovonligiga xizmat qiladi. Sport ta’limini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, yoshlarni unga jalb qilish jahon miqyosidagi muvaffaqiyatlarning kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Sport ta’limini rivojlantirish – sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishning asosiy omillaridan biri. Bu jarayonda davlat muassasalari, ta’lim tizimi, jamoat tashkilotlari va ota-onalarning birgalikdagi sa’y-harakatlari birlashtiirsh hamda bir maqsad sari birlashtirish o‘z samarasini beradi;

Uchinchidan, xalqimizning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha bilimlari muhim ahamiyat kasb etar ekan, bu borada yangi o‘quv adabiyotlarining mavjudligi hamda yaratish ishlarining tizimli tashkil etilganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Xususan, Islom qadriyatlaridan foydalanish jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha bilimlarni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi;

To‘rtinchidan, jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan islohotlarni tizimlashtirish, yoshlar orasida sportni ommalashtirishdan tortib, saralash jarayonlarini tashkil qilish hamda iqtidorli sportchilarni olimpiya zaxiralariga tanlab olish jarayonlarini ma’lum bir maqsadga yo‘naltirish kerak. Bunda xalqimizning jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha salohiyatini rivojlantirib borish, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, uch avlod o‘rtasidagi voriysilikni ta’minashga e’tibor qaratish sohaga bo‘lgan barqaror munosabatlarning shakllanib borishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Platonov, V. N. (2015). Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte: Obshchaya teoriya i ee prakticheskie prilozheniya [System of athlete preparation in Olympic sport: General theory and its practical applications]. Kyiv: Olimpiyskaya literatura.

2. Salamov, R. S. (2003). Sovershenstvovanie obrazovatelnogo protsessa podgotovki bakalavrov po napravleniyu “fizicheskaya kultura i sport” [Improvement of the educational process for training bachelors in “Physical culture and sport”] (Doctoral dissertation). Tashkent.

3. Stolyarov, V. I. (2020). Innovatsionnye napravleniya, formy i metody fizkulturno-sportivnoy raboty s naseleniem (otechestvennyy i zarubezhnyy opyt) [Innovative directions, forms and methods of physical culture and sports work with the population (domestic and foreign experience)] (Part III). Moscow: RUSAINS.

4. Stolov, I. I. (2008). Sportivnyy rezerv: sostoyanie, problemy, puti resheniya [Sports reserve: State, problems, and solutions]. Moscow: Sovetskiy sport.

5. Pazilov, N. N. (2016). Islom va sport [Islam and sport]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

6. Vilenskiy, M. Ya., & Gorshkov, A. G. (2020). Fizicheskaya kultura: Uchebnik [Physical culture: Textbook]. Moscow: KNORUS.

7. Shopulatov, A. (2026). Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar malakasini rivojlantirish yo’llari. Fan-sportga, 9(2), 112–115. https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i2.a032.